

XI. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

Navoiy viloyati va hududlarning tashkil topgan yillari hamda ularning markazlari

	<i>Tashkil topgan yil</i>	<i>Viloyat va tuman, shaharlar markazlari</i>	<i>Yer maydoni, ming. kv. km</i>
Navoiy viloyati	27.01.1992 y.	Navoiy sh.	111,1
Navoiy sh.	1958 y.	Navoiy sh	0,06
Zarafshon sh.	1972 y.	Zarafshon sh.	0,02
G'ozg'on sh.	03.05.2019 y.	G'ozg'on sh.	0,59
Karmana	09.09.1926 y.	Karmana sh-cha.	0,94
Konimex	29.12.1965 y.	Konimex sh-cha.	9,25
Qiziltepa	07.12.1970 y.	Qiziltepa sh.	2,19
Navbahor	12.03.1980 y.	Beshrabot sh-cha.	1,57
Nurota	29.09.1926 y.	Nurota sh.	5,94
Tomdi	03.07.1927 y.	Tomdibuloq sh-cha.	42,49
Uchquduq	25.03.1982 y.	Uchquduq sh.	46,63
Xatirchi	03.12.1964 y.	Yangirabot sh.	1,42

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil 1-iyul holatiga viloyatda doimiy aholi soni 1 022,1 ming kishini tashkil etdi va yil boshidan 8 490 kishiga yoki 0,8 foizga ko'paydi.

Doimiy aholi soni¹⁾
(2021-yil 1-iyul holatiga birlikda)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>1 kv. km ga to'g'ri keladiganlar soni</i>
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>	
Jami	1 022 121	500 191	521 930	9,2
Navoiy sh.	148 548	148 548	-	2 475
Zarafshon sh.	85 072	85 072	-	4 255
G'ozg'on sh.	8 834	8 834	-	14,9
Karmana	130 010	43 525	86 485	136,8
Konimex	36 431	16 631	19 800	3,9
Qiziltepa	155 046	49 414	105 632	70,8
Navbahor	115 615	17 031	98 584	73,6
Nurota	85 759	47 870	37 889	14,4
Tomdi	15 331	4 940	10 391	0,4
Uchquduq	37 963	32 323	5 640	0,8
Xatirchi	203 412	46 003	157 509	143,2

¹⁾ дастлабки маълумот

Jami aholi soni 1 022 121 kishi




Ayollar



49,3%

504 037 kishi



50,7%

Erkaklar




518 084 kishi

Aholining tabiiy harakati 2021-yil yanvar-iyun

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 aholiga nisbatan</i>	
	2020-y.	2021-y. ¹⁾	<i>o'sish, kamayish</i>	2020-y.	2021-y. ¹⁾
Tug'ilganlar	10 655	11 667	1 012	21,4	23,1
O'lganlar	2 089	2 287	198	4,2	4,5
Tabiiy o'sish	8 566	9 380	814	17,2	18,6
Nikohlar	1 895	3 572	1 677	3,8	7,1
Ajralishlar	447	645	198	0,9	1,3

¹⁾ dastlabki ma'lumot

Har 1000 aholiga nisbatan tabiiy harakati



Tug'ilish darajasi. 2021-yilning yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni 11 667 kishini tashkil qildi va 2020-yilning shu davriga (10 655 kishi) nisbatan 1 012 taga oshgan. Tug'ilish koeffitsiyenti mos ravishda 23,1 promilleni tashkil qildi va 2020-yilning shu davriga (21,4 promille) nisbatan ko'payganini ko'rsatmoqda.

Tug'ilish darajasi viloyatning Navoiy shahrida (11,9 dan 23,7 promillega), Zarafshon shahrida (15,3 dan 21,0 promillega), Nurota (22,6 dan 25,4 promillega), Karmana (18,7 dan 25,0 promillega), Konimex (19,6 dan 20,0 promillega), Qiziltepa (19,8 dan 20,8 promillega), Xatirchi (25,0 dan 25,5 promillega) tumanlarida oshgan bo'lib, aksincha kamayish Tomdi (46,1 dan 12,4 promillega), Uchquduq (52,3 dan 21,1 promillega), Navbahor (23,0 dan 22,4 promillega) tumanlarida kuzatildi.


O'lim darajasi. 2021-yilning yanvar-iyun oylarida o'lganlar soni 2 287 kishini tashkil qildi va 2020-yilning shu davriga (2 089 kishi) nisbatan 198 taga oshdi. O'lim koeffitsiyenti mos ravishda 4,5 promilleni tashkil qildi (2020-yil yanvar-iyun oylarida 4,2 promillega) teng bo'lgan.

O'lganlar sonining Navoiy shahrida (4,4 dan 5,0 promillega), Zarafshon shahrida (3,4 dan 3,7 promillega), G'ozg'on shahrida (1,4 dan 4,8 promillega), Navbahor tumanida (3,8 dan 4,7 promillega), Karmana tumanida (4,5 dan 5,0 promillega), Xatirchi tumanida (4,0 dan 4,2 promillega), Konimex tumanida (4,8 dan 5,8 promillega) ko'paygan bo'lib, aksincha kamayish Nurota tumanida (5,2 dan 5,0 promillega), Uchquduq tumanida (4,1 dan 3,6 promillega), Tomdi tumanida (3,4 dan 3,2 promillega) kuzatildi.


Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(Yanvar-iyun oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2020</i>	<i>2021</i>	<i>2020</i>	<i>2021</i>
Jami	1 895	3 572	447	645
Navoiy sh.	308	609	108	170
Zarafshon sh.	122	277	46	66
G'ozg'on sh.	-	6	-	2
Karmana	274	552	83	119
Konimex	70	110	16	19
Qiziltepa	312	515	47	66
Navbahor	229	340	50	67
Nurota	137	138	22	24
Tomdi	20	20	1	1
Uchquduq	57	69	10	27
Xatirchi	366	450	64	84

Viloyat bo'yicha tuzilgan nikohlarda hududlarning ulushi, % da



Viloyat bo'yicha nikohdan ajralishlarda hududlarning ulushi, % da



Nikohlar va ajralishlar. 2021-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYo organlarida 3 572 ta nikohlar va 645 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Har ming aholiga nisbatan 7,1 promille nikoh (2020-yilning tegishli davrida 8,8 promille) va 1,3 promille ajralishlar (2020-yilning tegishli davrida 0,9 promille) ga to'g'ri keldi.

Tuzilgan nikohlar viloyatning Navoiy shahar (4,3 dan 8,3 promillega), Zarafshon shahar (2,9 dan 6,6 promillega), G'ozg'on shahar (0,0 dan 1,4 promillega), Karmana (4,4 dan 8,6 promillega), Konimex (3,9 dan 6,1 promillega), Qiziltepa (4,1 dan 6,7 promillega), Navbahor (4,1 dan 6,0 promillega), Uchquduq (3,0 dan 3,7 promillega), Xatirchi (3,7 dan 4,5 promillega), tumanlarida oshgani kuzatildi.

Nikohdan ajralganlar viloyatning Navoiy shahar (1,5 dan 2,3 promillega), Zarafshon shahar (1,1 dan 1,6 promillega), G'ozg'on shahar (0,0 dan 0,5 promillega), Konimex (0,9 dan 1,1 promillega), Qiziltepa (0,6 dan 0,9 promillega), Navbahor (0,9 dan 1,2 promillega), Karmana (1,3 dan 1,9 promillega), Nurota (0,5 dan 0,6 promillega), Uchquduq (0,5 dan 1,4 promillega), Xatirchi (0,6 dan 0,8 promillega), tumanlarida oshgani kuzatildi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari
(Yanvar-iyun oylarida 1000 aholi soniga)

	Tugʻilganlar		Oʻlganlar		Aholining tabiiy oʻsishi	
	2020-y.	2021-y. ¹⁾	2020-y.	2021-y. ¹⁾	2020-y.	2021-y. ¹⁾
Jami	21,4	23,1	4,2	4,5	17,2	18,6
Navoiy sh.	11,9	23,7	4,4	5,0	7,5	18,7
Zarafshon sh.	15,3	21,0	3,4	3,7	11,9	17,3
Gʻozgʻon sh.	18,8	18,8	1,4	4,8	17,4	14,0
Karmana	18,7	25,0	4,5	5,0	14,2	20,0
Konimex	19,6	20,0	4,8	5,8	14,8	14,2
Qiziltepa	19,8	20,8	4,3	4,3	15,5	16,5
Navbahor	23,0	22,4	3,8	4,7	19,2	17,7
Nurota	22,6	25,4	5,2	5,0	17,4	20,4
Tomdi	46,1	12,4	3,4	3,2	42,7	9,2
Uchquduq	52,3	21,1	4,1	3,6	48,2	17,5
Xatirchi	25,0	25,5	4,0	4,2	21,0	21,3


Viloyat boʻyicha koʻchib kelganlar va koʻchib ketganlar soni
(Yanvar-iyun oylarida birlik)

	<i>Koʻchib kelganlar</i>		<i>Koʻchib ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021 ¹⁾
Jami	3 171	4 833	3 903	5 723	-732	-890
Navoiy sh.	1 188	1 892	1 092	1 578	96	314
Zarafshon sh.	343	9	411	756	-68	-747
Gʻozgʻon sh.	-	1	-	17	-	-16
Karmana	499	1 183	466	648	33	535
Konimex	187	267	123	284	64	-17


¹⁾ дастлабки маълумот

	<i>Ko'chib kelganlar</i>		<i>Ko'chib ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldosi</i>	
	<i>2020</i>	<i>2021</i>	<i>2020</i>	<i>2021</i>	<i>2020</i>	<i>2021 ¹⁾</i>
Qiziltepa	175	197	298	356	-123	-159
Navbahor	217	293	284	357	-67	-64
Nurota	108	146	281	471	-173	-325
Tomdi	156	233	45	106	111	127
Uchquduq	96	323	199	351	-103	-28
Xatirchi	202	289	704	799	-502	-510

Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni
(Yanvar-iyun oylarida birlik)



Viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni (Yanvar-iyun oylarida birlik)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4 833 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 5 723 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i manfiy 890 kishiga (2020-yilning shu davrida manfiy 732 kishi) teng bo'ldi.

Viloyat hududida migratsiya qoldig'i, Zarafshon shahri (manfiy 747 kishiga), Qiziltepa (manfiy 159), Nurota (manfiy 325), Xatirchi (manfiy 510), tumanlarida kamayish kuzatildi.

Viloyat hududida migratsiya qoldig'i Navoiy shahrida (314 kishiga), Karmana (535 kishiga), Tomdi (127 kishiga) tumanlarida oshgani kuzatildi.